

SOG'LOM OILA MUHITINI YARATISHDA OTA-ONA ROLI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15468298>

Sheranova Maryam Bazarbaevna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti
pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasi
dotsenti*

Annatatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizning jadal suratlar bilan o'zgarib borayotgan bir vaqtda Oila tarbiyasining muhimligi, oilaviy muhitning sog'lom va barqaror bo'lisida oiladagi katta kishilarning, ayniqsa ota-onaning ro'li juda muhimligi, Bolani to'g'ri tarbiyalashda oiladagi muhit va oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan to'g'ri munosabatlari, moumala madaniyati, oiladagi katta kishilarning, ota-onaning shaxsiy ibrati juda muhimligi to'g'risida bayon etiladi

Kalit so'zlar:

tarbiya, oila, ma'naviy, jismoniy barkamol, ma'suliyat, ma'naviyat, qadriyat, yosh avlod, shaxs, ilmiy, amaliy, jamiyat, munosabat, na'muna.

РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В СОЗДАНИИ ЗДОРОВОЙ СЕМЕЙНОЙ СРЕДЫ.

Шеранова Марьям Базарбаевна

*Джизакский государственный педагогический университет
дотцент Кафедры теории педагогического
образования*

Аннотация

В данной статье описывается важность семейного воспитания в то время, когда наше общество стремительно меняется, роль взрослых в семье, особенно родителей, в здоровой и стабильной семейной обстановке, значение семейной обстановки и правильных взаимоотношений членов семьи друг с другом, культура поведения, личный пример взрослых в семье, родителей, в правильном воспитании ребенка.

Ключевые слова

воспитание, семья, духовное, физическое благополучие, ответственность, духовность, ценность, молодое поколение, личность, научный, практический, общество, отношение, пример.

THE ROLE OF PARENTS IN CREATING A HEALTHY FAMILY ENVIRONMENT.

Sheranova Maryam Bazarbaevna

Associate Professor of the Department of Theory of Pedagogical Education, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract

This article describes the importance of family education at a time when our society is changing rapidly, the role of adults in the family, especially parents, in a healthy and stable family environment, the importance of the family environment and the correct relationships of family members with each other, the culture of behavior, the personal example of adults in the family, parents, in raising a child correctly.

Keywords

education, family, spiritual, physical well-being, responsibility, spirituality, value, young generation, personality, scientific, practical, society, attitude, example.

Oilaviy munosabatlarda ota - onaning bir - biriga bo'lgan ishonchi, bir-birini to'g'ri tushunishi, ularning bir-biriga nisbatan mehr - muhabbatli bo'lishi oilada bolaga ko'rsatiladigan axloqiy tarbiyaning asosinidir. Oilada bunday o'zaro uyg'un munosabatlarning mavjudligi o'z navbatida ota-onaning farzandlariga nisbaban mehrini kuchaytiradi, ular tarbiyasiga bo'lgan ma'suliyatini ham orttiradi. Bundan nafaqat ota-onsa, balki farzandlar ham ma'naviy oziyuqa olishadi. Bunday o'aro uyg'un ma'naviy ozuqaning o'rnnini hech qanday pedagogik tarbiyaviy tadbirlar-u, tarbiyaviy soatlar to'ldira olmaydi. Shunng uchunn ham biz hozirgi kun talabidan kelibb chiqqan holda, nafaqat ota-onalarni, balki bo'lajak ota - onalarni ham yoshligidan boshlab oilabiy hayotga, farzand tarbiyasiga tayyorlab borishimiz shatr,-deb o'ylayman. Bu faqat kelajakda yaxshi oila qurish, yaxshi farzand tarbiyalash uchun muhim bo'lib qolmasdan, balki jamiyatimiz mustahkamligi, tinch-osayishtaligi, Vatanimiz ravnaqi uchun ham juda muhimdir. Bunday o'ta ma'suliyatli bo'lgan tarbiyani amalga oshirishda birinchi orinda farzandlarimizga yoshlikdan boshlab hayot, hayotning go'zalligi, inson umri, uni mazmunli o'tkazish, vaqt, vaqt qadri, insonning qadr-qimmati, tarbiyali, ilmli insonlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, baxtli oila, oila byudjeti kabi zaruriy hayotiy masalalar to'g'risida saboqlar berib borilsa har tomonlama maqsadga muofiq bo'lardi.

Hayot, hayotning go'zalligi, inson umri, uni qanday mazmunli o'tkazish haqida, avvalo bu tushunchalar to'g'risida, uning inson hayotidagi ahamiyati haqida otalar ham, onalar ongли tasavvurga ega bo'lishi kerak. Avvalo insonning jismoniy va ma'naviy sog'lom bo'lishi, baxtli hayot kechirishning asosi ekanligini, mana shu uning umr mazmunini belgilab beruvchi omil ekanligini tushunib o'tishlari shart

Har tug'ilgan insonga hayotda yashashdek buyuk ne'mat, yashash baxti ato etilgandir. Har bir faarzandini dunyoga keltirish uchun, uni tarbiyalab voyaga etkazish uchun ona ozmuncha zaxmat chekadimi? U shuning uchun ham

Ota-onaning vazifasi faqagina farzandini oq yuvib, oq tarab voyaga etkazishdan iborat bo'lmay, ularni ota-onaning, Ona Vataning qadriga etadigan, har tomonlama barkamol, ma'naviyatli, ma'rifatli, imon-e'tiqodli qilib tarbiyalashdan ham iboratdir. Bu kabi ma'suliyatli vazifal ota-onaning bir-biriga mehr-muhabbatini yanada yuksaltiradi. Oilada farzandlar dunyoga kelaversa, ular o'rtasidagi rishtalar mustahkamlanib, oila nomliq qo'rg'onga nisbatan ma'suliyati ortib boraveradi. Hayotning asl go'zallini belgilovchi omili mana shundadir. Mana shu o'rinda O'tkir Hoshimovning quyidagi fikrlarini misol keltirish o'rinnlidir: "Hatto bulbul ham bola ochgandan keyin sayrashni bas qilib, polaponlariga emish tashiydi". Inson hayotining go'zalligi ham ota - ona va oiladagi farzandlar o'rtasidagi o'zaro samimiy, mehr - muhabbatga yo'g'rilgan munosabatlardadir. Bunday samimiy munosabatlar farzand tarbiyasidagi samaralilikni ta'minlaydi. Zero xalqimizda qadimdan uch avlod tarbiyasiga katta e'tibor berishgan. Bu albatta be'jizga emas. Insonning yaxshili, amali-yu davlati bilan emas, uning qilgan ezgu ishlari va tarbiyalagan farzandining kimligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda xalqimizning bir ibratli maqolini misol keltirishni o'rinnli deb bildim:

"Davlating ota - onang,

Savlating o'g'il - qizing". (Xalq maqoli)

Oiladagi tinch-totuvlik, osayishtalik, xotirjamlik oila a'zolari hayotining yanada go'zal bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida ota-onaga farzand tarbiyasida yanada kuch bag'ishlaydi. Hayotda mana shunday go'zal hayotni qadrlagan, uni yaratayotgan insonlarning ko'pligi tufayli ham Jamiyatimiz kundan-kun rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Demak, biz ota-onalar kelajakda o'zimizga munosib bo'lgan farzand tarbiyalashni ko'zlab ish tutishimiz, har bir ishda avvalo ibrat bo'lishni o'zimizdan boshlashimiz lozim. Chunki xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi"-degan naql bekoriga aytilmagan. Biz tarbiyani yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib amalga oshirsak farzandlarimiz yomon farzand hech qachon

yomon farzand bo'lib voyaga etishmaydi. Xalqimizda bir gap bor: "Farzand yomon bo'lib tug'ilmaydi, u yomon tarbiya tufayli yomon odamga aylanadi". Shunday ekan aybni farzandimizdan emas, balki o'zimizdan, e'tiborsizligimizdan, ma'suiyatsizligimizdan izlashimiz kerak. Chunki, yomon farzand oilaga ham, jamiyatga ham zarar.

Oilada farzand ma'naviyatini shaklantirmasdan, jamiyat ma'naviyatini, xalqimiz turmush tarzini yuksaltirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham birinchi navbatda farzand tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ota-onalar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tarbiya borasidagi savodxonligini o'stirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Vaholanki jamiyatimizda tarbiya ishi bilan u yoki bu o'rinda shug'ullanmaydigan insonning o'zi yo'q. Ma'naviy tarbiya berish jarayonida xo'jako'rsinlikga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda tarbiyada bo'shliq paydo bo'ladi. Bu esa yoshlarimiz orasidan ishyoqmas, dangasa, loqayd, o'z maqsadi va tanlangan hayot yoliga ega bo'lмаган yoshlarning chiqishidan mumkinligidan dalolat beradi. SHu sababli ham ma'naviy barkamol inson tarbiyasini oilada farzandlarning yoshligidanoq boshlashga to'g'ri keladi. Bunda farzandlarimizni yoshligidanoq to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlikka, insonparvarlikka, ezgulikka, mehnatsevarlikka o'rgatib, ularni yuksak axloqli qilib tarbiyalash oilada ma'naviy barkamol inson tarbiyasining asosiy bosqichidir. Bu tarbiyani amalga oshirishda birinchi o'rinda ota-onaning bilimli bo'lishi, madaniyati, ma'naviyati va shaxsiy namunasi juda muhimdir.

Demak, oilada farzandlarimizni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash orqali biz jamiyatimizning barqarorligiga, gullab-yashnashiga, kelajak avlodlarning baxtli hayot kechirishiga erishamiz. Zero har bir ota-ona o'z farzandini baxtli ko'rishni istaydi va bunda xaqlidir. Bu tarbiyada biz ota-onalarning har sohadagi shaxsiy na'munamiz juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Mirziyoev Sh..M. Buyuk kelajagivizni mard va oliyjanob xalsimiz bilan quramiz. - T. -O'zbekiston.-2017.-488 b.
2. "Avesto"да ta'limiy-axloqiy qarashlar. - Maxmudova N.D. Ped.fan.nomz.dist. avtoref. - T. O'zPFITI, 2005. - 23 б.
3. Amir Temur o'gitlari. - Toshkent, 1992 .
- 4.M.Xayrullaev. Ma'naviyat yulduzlari. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
- 5.O.Xasanbaeva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya.-T. "O'qituvchi", 1993.
- 4.Zunnunov A. Pedagogika tarixi. - Toshkent: Sharq,2004. - B. 40.

- 5.A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 42.
7. Sheranova M. B. "G'arb mamlakatlarida oilaviy munosabatlar". International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor 128-132b <https://doi.org/10.5281/zenodo.10926132>
8. Sheranova M. The Process of Formation of Pedagogical Culture. Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 5899 - 5903 Received
- 05 March 2021; Accepted 01 April 2021. 5899-5903. <http://annalsofrscb.ro>
- 10.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 152-155.
- 11.A.Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Yangi asr avlodi, 2016 y.